XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 26 - aprel VI-86-42-10-149-K/23 Bekobod shahar hokimligi

Bekobod shahrida mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 22-apreldagi “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi 350-sonli Qonunni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi “Mahalla institutini yana takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944-sonli Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, pasyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va ularni nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga muvofiq, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining 2023-yil 4-martdagi 08-01607-son xati, Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 2-martdagi 15-00452-sonli yig‘ilish qarori, Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqidagi komissiya xulosasini va Bekobod shahar “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish bo‘yicha bergan “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini 2022-yil 9-noyabrdagi 178-sonli xatini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Bekobod shahar “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘inining mahalla fuqarolar yig‘ini hududini bo‘lish va yangi mahalla tuzish bo‘yicha “Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash” komissiyasining qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Bekobod shahar “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘iniga vaqtinchalik biriktirilgan 15-daha hududida yangi tashkil etilgan massivda yangi mahalla fuqarolar

yig‘ini tashkil etilsin hamda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga “Yangi avlod” deb nomlanishi ma’qullansin.

3. Bo‘linadigan va yangi tashkil etilgan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organining yer maydonining xaritasi *1-ilovaga* muvofiq, bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining chegaralari *2-ilovaga* muvofiq, “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining nomi va boshqa ma’lumotlar *3-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

4. Bekobod shahar hokimi 1-o‘rinbosari v.b (Q.Safarov)ga, shahar statistika bo‘limi (Z.Nazirov), davlat kadastrlari palatasi Bekobod shahar filiali (S.Obidov) va shahar qurilish bo‘limi (G‘.Begmatov)ga hamda boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Yangi tashkil etilayotgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlar amalga oshirilsin.

5. Bekobod shahar Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i M.Sottiyevga:

Mazkur qaror bilan tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi hududida yashovchi aholi fuqarolik pasportiga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlari tashkiliy ravishda amalga oshirilsin;

Yangi tashkil qilinayotgan mahalla fuqarolar yig‘inining dumaloq muxri va shtamplari tayyorlashga ruxsat berish vazifasi topshirilsin.

6. Bekobod shahar hokimi o‘rinbosari (A.Dadaboyev)ga shaharda yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga yangi nom yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

7. Bekobod shahar hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Boyqo‘ziyev)ga shtat birliklariga belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

8. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Usmonqulov)ga va shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (F.Abdullayev)larga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inida O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida“gi Qonunining talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlari o‘tkazilib, saylov yig‘ilishiga vakillar norma asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan munosib kadrlar zahirasini shakllantirib, shahar hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

9. “Bekobod yangiliklari” gazetasi (A.Ismatov) mazkur qarorni gazetada rasmiy e’lon qilsh hamda shahar hokimligining matbuot kotibi (M.Fayziyev) hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

10. Ushbu kengash qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

11. Ushbu kengashi qarorni ijrosini nazorat qilish xalq depuatlari Bekobod shahar Kengashining tegishli doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin


Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi raisi



N.BABAYEV

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2023 yil 26 apreldagi
VI-86-42-10-149-K/23-son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Bekobod shaharidagi yangi tashkil etilayotgan mahalla xududi chegaralarini belgilash



A dan B gacha Do'stlik MFY
B dan C gacha Paxtakor MFY
C dan D gacha Bog'ishamol MFY
D dan E gacha Yangi hayot MFY
E dan A gacha Metallurg MFY

Shartli belgilar


Nuqta

MFY chegarasi

Ko'chalar



Masshtab 1:2000



Xalq deputatlari Bekobod shahar
Kengashining
2023 yil 26 apreldagi
VI-86-42-10-149-K/23-son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati, Bekobod shahar “Yangi avlod” mahallasining chegarasini belgilash

TAVSIFI

Bekobod shahri “Yangi avlod” va “Do’stlik”, ”Metallurg” mahallalari chegarasi tutashgan joyida boshlang’ich 1-nuqta deb qabul qilindi. (WGS-84 koordinatalar tizimida shimoliy kenglik 40°14'21,254" N sharqiy uzunlik 69° 16' 8,536").

1-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo’nalishda 879-metr masofadan o’tib “Paxtakor” va “Bog’ishamol” mahallasi chegarasi tutashgan qismida 2-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 40°14'12,237", sharqiy uzunlik 69° 15' 42,852").

2-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-g’arbiy yo‘nalishda 313-metr masofada o’tib “Yangi hayot” mahallasi chegara qismi tutashgan joyda 3-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 40° 14' 14,584", sharqiy uzunlik 69°15'36,593").

3-nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo’nalishda 1571-metr masofani o’tib, “Yangi hayot” mahallasini chegara hududi bo’ylab “Metallurg” mahalasi bilan tutashgan qismida 4-nuqtaga tutashadi (shimoliy kenglik 40°14'46,370", sharqiy uzunlik 69° 16' 0,626").

4-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo’nalishda 1037-metr masofadan o’tib, “Metallurg” mahallasi chegarasi bo’ylab Buyuk ipak yo’li ko’chasi bo’ylab Do’stlik mahallasi chegara chizig’i tutashgan qismida 1-nuqtaga tutashadi (shimoliy 40°14'21,254", sharqiy uzunlik 69°16'8,536")

Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashining
2023 yil 26 apreldagi
VI-86-42-10-149-K/23-son qaroriga
3-ilova

“Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududining bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining nomi to ‘g‘risida

№	MFY nomi	Joylashgan ko‘chalar (aholi punktlari) nomi	Yangi MFY nomi	Joylashgan ko‘chalar (aholi punktlari) nomi
1	Paxtakor	14-daha 20,25,58,60,61,63,64,66,67,68,69,71,72-4 qavatli uylar; 21,26,56,59,62,65,70,2a-5 qavatli uylar	Yangi avlod	15-daha 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11,16,17,18 -7-qavatli uylar 13,14-9 qavatli uylar 9-ta hizmat uylari